

Ona naqadar buyuk zod

Termiz davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili)

1-bosqich talabasi

Matyakubova Gulixon Rashid qizi

Ona eng yoqimli so'z. Allohning bergen buyuk ne'mati. Bu insonga qancha tarif bersak shuncha kam. Har bir oilaning tinch-totuv barqaror xotirjam bo'lishi farzandlarining sog'lom va barkamol bo'lishi oilada sog'lom turmush tarzining mavjudligi har jihatdan bu inson zimmasiga tushadi. Shunday masuliyatli chin dildan hech nolimay boshini mag'rur ko'tarib hayot qiyinchiliklarida o'zida kuch topib atrofdagilarga madadkor bu bizningjannat yuzli onamiz. Ona bu farzandi uchun yelib yugurivchi zod. O'z farzandi uchun barcha narsaga tayyor farishta. Farzandining dunyoga kelishidagi validaning quvonchi kabi quvonch xursandchilik hech kimda bo'lmaydi. Ushbu to'qqiz oy vaqtini bedorlikka uyqusiz va ko'plab bezovtalikka kunlarni tunlarga ulab tug'ulganimizdan keyin esa shu paytdagi barcha qiyinchiliklarni ortga tashlab yanada yangi tashvishlarga sho'ng'ib butkul o'zini unutib faqat farzandlarini qayg'ura boshlaydigan ulug' simo. Menimcha hammaning birinchi ustozи bu o'z validasi bo'lsa kerak. Chunki katta Yu kichikka birday yordam beradigan doimo to'g'ri yo'll ko'rsatadigan murabbiy. Hamma narsaning yaxshi tarafi bo'lgandek yomon tarafi yo'q emas albatta. Ba'zilar o'z onasining qadriga yetmaydi. O'zining dunyoga keltirgan validasi turib boshqalarni ustun ko'radi. Ba'zilar esa ona mehrliga zor. O'ylab ko'radigan bo'lsak mehribonlik uyindagi bolalar o'z onasini hatto ko'rmagan ham. ular shunchalik ona mehrliga zorki, uni tariflashga til ojiz. Shuning uchun ham ulug' siymo mehri har qanday mehrdan ustun. Jannatim farishtam onajonim baxtimga doimo sog' salomat bo'ling. Men ularni judayam yaxshi ko'raman. Ulardan ancha uzoqda bo'lsam ham har kuni telefon qilib meni yaxshi ko'rishlarni aytadi. Sen hali ko'p yutuqlarga erishasan deb duo qiladilar. Biz sendan faxrlanamiz deb meni maqtab qo'yadi. Jannat yuzli qirolicham bir kun ham o'zi uchun yashamaydi har doim oilam bolam deb yelib yuguradi. Farzandini hech kimdan kam qilmaydi. O'zi yemay yediradi, o'zi kiymagan kiyimlarni farzandi uchun olib beradi. Ona har bir inson hayotidagi qimmatbaho tosh. onajonlarimizning vaqtida qadrliga yetaylik. Keyin afsuslanadigan ish qilmaylik. Aytishlaricha, Imom Buxoriyning yoshligida ko'zi jarohatlanib

ojizlanib qoladi. Tabiblarga qaratadilar foyda bermaydi. Bir kuni onasi tush ko'radi Ibrohim alayhissalom unga qarata "Ey volida duolarining sharafidan Allah o'g'lingga ko'rish ne'matini qaytardi deb xitob qilganmish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Shavkat. M "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz", "O'zbekiston" Toshkent 2017.
2. Erkin Umarov; Mahmud Abdullayev "Ma'naviyat asoslari" "Sharq" Toshkent 2005.
3. <https://kknews.uz/oz/126463.html>
4. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/Ta-limga-e-tibor-kelajakka-poydevor.htm>
5. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-nechta-oliy-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi_567669
6. https://youtu.be/hEy2QqkTlDU?si=_zstZbU8WvRj0xs
7. <https://parliament.gov.uz/articles/1350>
8. <https://lex.uz/docs/-4208152#-4211312>
9. https://scholar.google.com/scholar?q=related:BJeGeOmGgdwJ:scholar.google.com/&hl=ru&as_sdt=0,5